

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**

Namangan muhandislik-pedagogika instituti

Transport fakulteti

Kasb ta'limi (Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash) kafedrası

**Bo'laklarni jamlash mavzusini ilgor pedagogik texnologiyalardan
foydalanib o'qitish uchun metodik tavsiya ishlab chikish (CHust
transport va aloqa KXX misolida) mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

TUSHUNTIRUV YoZUVI

24-KTTVIT-10 guruhi talabasi Bayozov Jamoliddin _____

Rahbar: dots.B.Qambarov _____

Maslahatchi: _____

Namangan -2014

Bitiruv malaka ishi 31 varaq tushintirish yozuvi va 5 varaq chizmadan iborat bo'lib, umumiy, asosiy, o'qitish metodikasi, iqtisodiy, mehnat muhofazasi qismlaridan, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malaka ishini chizma qismida avtomobillarni tuzilishi fanidan tajriba va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish xonasini rejasi, texnologik xarita, metodik qism bo'yicha klaster va iqtisodiy samaradorlik jadvalidan iborat.

Bitiruv malaka ishini umumiy qismida kasb hunar kollejining qisqacha tavsifi, malaka tavsifi va bitiruv malaka ishi mavzusini asoslash berilgan. Asosiy qismida o'quv xonasini loyihalash, o'quv xonasini vazifasi va unga qo'yiladigan talablar, xona rejasi, xonani jihozlash, xona maydonini hisoblash, o'quvchilarning ish joylarini tashkil qilish, avtomobillarni tuzilishini o'rganish uchun xona keltirilgan. O'qitish metodikasi qismida avtomobilning tuzilishi bo'yicha laboratoriya-amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish rejasi va avtomobil tuzilishidan interfaol strategiyalar asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqilgan. Mehnat muhofazasi qismida tajriba va amaliy mashg'ulot xonasi uchun xavfsizlik texnikasi berilgan.

1.1. CHust sanoat, transport va aloqa kasb hunar kolleji tavsifi

O'quv yurti O'zbekiston xukumatining qaroriga asosan 1975 yil oktyabrda CHust tumanining Karnon qishlog'ida 111-qishloq xunar texnika bilim yurti (SPTU) sifatida tashkil topdi. 1977 yilda 111- o'rta qishloq xunar texnika bilim yurti (SPTU) ga aylantirildi. O'sha davrda o'quv yurtining 8 ta umumta'lim va maxsus fan xonalari 12 nafar o'qituvchi va muxandis pedagog bo'lgan.

1984 yildan CHust shaxrining toshloqdan iborat chekka tashlandiq qismida bilim yurtining yangi binolarni qurishga kirishildi. Bir yillik qisqa davr ichida o'quv, ishlab chiqarish, ma'muriy, yotoqxona binolari qurildi. Avtogaraj, avtodrom, sport va xarbiy ta'lim maydonlari bunyod etildi. 1987 yilda o'quv yurti 15-kasb-xunar maktabiga aylantirildi.

O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 1998 yil 23-sentyabrdagi 406-sonli 1998-2005 yillarda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari moddiy texnika bazasini rivojlantirish hamda mablag' bilan ta'minlash dasturi to'g'risidagi qarori asosida, 2000 yilning sentyabr oyida CHust sanoat, transport va aloqa kasb-hunar kollejiga aylantirildi. Kasb hunar kolleji O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi Namangan viloyat hokimligining o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tarkibiga kiradi.

1999 yilning oktyabr oyidan 2000 yilning 15 sentyabrgacha kasb-xunar maktabi rekonstruksiya qilinib, jaxon andozalariga moslashtirildi va kasb-xunar kollejiga aylantirildi. Buning uchun byudjetdan 266 mln so'm mablag' sarflandi. Biologiya, radiotexnika, elektrotexnika, fizika, astronomiya, kimyo, informatika, lingafon, avtomobil tuzilishi xonalari, Janubiy Koreyadan keltirilgan 500 komplekt umumiy qiymati 282440 A+SH dollari yoki 97358868 so'mlik zamonaviy asbob-uskunalar va jixozlar bilan jixozlantirildi. 2000-2003 yillarda 1000 tadan ko'proq darslik, o'quv uslubiy qo'llanma va adabiyotlar olindi. Ko'tubxonaning darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodi bilan boyitish davom etmoqda. Xozirgi kunda kollej balansida 36715 ming so'mlik jixozlar mavjud.

Kollejda o'qituvchilarning kasbiy, ilmiy va o'quv uslubiy salohiyatini yuksaltirish yo'lida NamDU va NamMPI bilan xamkorlikda rejali ish olib borilmoqda. 50 nafar o'qituvchi va muxandis-pedagogning hammasi malakasini oshirgan va davlat attestatsiyasidan o'tgan bo'lib, 9 nafari oliy, 11 nafari birinchi, 18 nafari ikkinchi toifali o'qituvchilardir. 2001-2002 15 nafar o'qituvchi doimiy xarakatdagi malaka oshirish kurslarida (DXMO) o'qidi. 2002-2003 o'quv yilida 13 nafar o'qituvchi DXMO kurslarida qatnashdi. Maxsus fan o'qituvchilaridan 2 nafari 2001 yilda Janubiy Koreya Respublikasining Sivak-Koma instituti o'z malakalarini oshirib qaytdi.

Bugungi kunda kollejda 660 nafar talabalarga avtomobillarga TXK, buxgalteriya xisobi, EXM operatori mo'taxassisliklari o'rgatilmoqda, o'quv xonalari soni 30 ta, o'quv loybaratoriya xonalari soni 4 ta, o'quv ustaxonalari xonalari soni 5 ta.

Kasb-hunar kolleji davlat standartlari doirasida o'rta maxsus kasb-hunar bilimni beradigan o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan yangi turdagi o'quv yurtidir.

Ta'lim shakli kunduzgi. Kasb-hunar kolleji bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan nusxadagi diplom beriladi, unda o'rta maxsus kasb ta'limi yo'nalishlari va mo'taxassisliklarini klassifikatori tasniflashni muvofiq mo'taxassislik bo'yicha berilgan malaka ko'rsatiladi.

Kasb-hunar kollejiga qabul qilish umumiy o'rta ta'lim negizida maktablarning 9-sinfini bitiruvchilarini yakuniy Davlat attestatsiyasi va umumiy o'rta ta'limning tugatishda ular tomonidan olingan reyting ko'rsatkichlari natijalari bo'yicha ixtiyoriy ravishda tanlangan mo'taxassisliklarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kollejida o'qish muddati 3 yil mutaxassisliklar o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorlari asosida tayyorlanadi.

Kasb-hunar kollejida o'qish muddati 3 yil mo'taxassisliklar o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari va mo'taxassisliklari klassifikatorlari asosida tayyorlanadi. Kasb hunar kolleji yiliga 300 ta o'quvchini quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha qabul qiladi:

3840020 Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish

3840021 Avtomobillarni elektr jixozlarini ta'mirlash elektrigi

«V» va «S» toifali xaydovchi

3520610 Metallarga ishlov berish

3521220 Yuk tashishni tashkil etish va avtomobil xarakatini boshqarish

3520230 Sanoat korxonalarini va fuqaro inshootlaridagi elektr montaj ishlari

3521910 Elektron xisoblash mashinalari va kompyuter tarmoqlarini o'rnatish

3340910 Buxgalteriya hisobi

3541010 Soliqqa tortish

Kolejdin 2004-2005 yillarda 5 nafar malakali muxandis-pedagog va raxbar kadrlar chet ellarda Germaniya, Avstraliya, Indoneziya kabi rivojlangan davlatlarda malaka oshirib keldilar.

Kolejda 350 o'rinli talabalar uyi, sport zal, 350 o'rinli ko'tubxona, kichik avtodrom, 200 o'rinli marosimlar zali, 240 o'rinli oshxona va o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari talabalarning yaxshi bilim olishlari uchun xizmat qilmoqda.

1.2. Malaka tavsifi

Tayyorlov yo'nalishi: «Avtotransportni ishlatish va ta'mirlash»

Kasbi: Avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha usta.

Mutaxassisliklar:

- avtotransport vositalariga texnikaviy xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar;
- avtotransport elektr jihozlari ta'mirlash bo'yicha elektrik;
- «V» va «S» toifali haydovchi.

Avtotransportni ishlatish va ta'mirlash yo'nalishining qo'llanish sohasi va vazifasi. Ushbu yo'nalish bo'yicha Davlat va nodavlat avtotransport korxonalari uchun avtotransport vositalarini ishlatish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajaradigan kichik mo'taxassisliklar tayyorlanadi.

Avtotransportni ishlatish va ta'mirlash tayyorlov yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan kichik mo'taxassis mehnat bozorida quyidagi lavozimda faoliyat ko'rsatadi:

- avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar;
- avtotransport elektr jihozlari ta'mirlash bo'yicha elektrik;
- «V» va «S» toifali haydovchi.

Standartda belgilangan zarur va yetarli mazmuni, kasbiy ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga kichik mutaxassis malakasi beriladi.

Kasbiy ta'limni chuqurlashtirish maqsadida kadrlar malakasini oshirish tizimida, tarmoq uquv muassasalarida va maxsus kurslarda keyinchalik malakani oshirish amalga oshiriladi.

Oliy o'quv yurtlarida kasbiy faoliyatni mazkur sohasida yanada yuqoriroq malakaga erishiladi.

Ushbu tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassisliklar mehnat bozorida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim Markazi, Mehnat vazirligi hamda Moliya vazirliklari tomonidan tasdiqlangan «O'rta maxsus, kasb-hunar o'quv muassasalari bitiruvchisining faoliyati yo'nalishlari egallagan kasblari, lavozimlari tarif razryadlarining oralig'i» me'yoriy hujjat asosida quyidagi lavozimlar bo'yicha keltirilgan tarif razryadlari bo'yicha ishlashlari mumkin: avtotransport vositalariga texnikaviy xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar 3-6 tarif razryadi; avtotransport elektr jihozlari ta'mirlash bo'yicha elektrik 3-6 tarif razryadi; «V» va «S» toifali haydovchi 3-6 tarif razryadi.

1.2. Bitiruv malaka ishi mavzusini asoslash

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni birinchi bosqichi davrida respublikamizda akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari bunyod etildi va ularning uquv texnik bazalari zamonaviy uquv jihozlari bilan to'la ta'minlandi.

Kasb-hunar kollejlarning har bir mutaxassisliklari uchun, ayniqsa, kasbiy fanlardan adabiyotlar ta'minoti talab darajasiga yetkazilmoqda. Kasb-hunar kollejlari uchun yaratilayotgan adabiyotlarning yangi avlodi kasb-hunar kollejlari ta'lim standartlari talablariga to'la javob berishi lozim. Bundan tashqari respublikamizda amalga oshirilayotgan «Ta'lim islohotlari» ni aks ettirish lozim, yaratilayotgan adabiyotlar va uquv qo'llanmalari na faqat uquvchilar auditoriyasi uchun, balki, o'qituvchilar uchun ham mo'ljallangan bo'lishi lozim, ya'ni o'qituvchilar uchun mavzularni va mashg'ulotlarni o'tishda lozim bo'lgan ilg'or uslubiy ko'rsatmalar ham keltirilgan bo'lishi kerak.

Kasb-hunar kollejlari kasbiy fanlardan ta'lim beruvchi o'qituvchilarni ham malakasi talab darajasida deb bo'lmaydi. Kasb-hunar kollejlari bu muammolarni yechish maqsadida tayanch oliy uquv yurtlari qoshida o'qituvchilarni malakasini oshiri kurslari va bo'limlari tashkil etildi. Bunday bo'limlarni tashkil etish kadrlar tayyorlar milliy dasturini sifat bosqichini vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan muhim qadamlardan biridir.

Kasb-hunar kollejlari pedagoglari ta'lim standartlari, o'quv rejalari va fanning namunaviy dasturi asosida fanning har bir mavzusiga bag'ishlangan dars mashg'ulotlarini aniq maqsadlar asosida loyihalash malakasiga bo'lishi lozim.

Har bir fanni namunaviy va ishchi dasturlari asosida har bir mavzuga bag'ishlangan dars mashg'ulotlarini olib borish jarayonini loyihalamasdan ta'lim jarayonini sifatini oshirishni tasavvur qilish mushkul.

Dars jarayonini loyihalash, ya'ni soddaroq qilib aytganda rejalashtirish, bu mavjud adabiyotlar, ilmiy texnik jurnallar va axborotlar, o'quv jihozlari, o'qitish vositalari, ko'rgazmali qurollar yordamida o'quv va ta'lim maqsadlariga erishini eng samarali yo'llaridan biridir.

Hozirgi kunda dars jarayonini rejalashtirishga va loyihalashga bag'ishlangan ko'plab anjumanlar, uquv kurslari tashkil etilib, ushbu anjumanlar materiallari asosida uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqilmoqda va ta'lim jarayonida keng qo'llashda foydalanilmoqda. Jumladan kasbiy va texnika fanlaridan ma'ruzalar matni, o'quv qo'llanmalar va adabiyotlarni yaratish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va qo'llanmalar ishlab chiqildi. Biroq bunday qo'llanma va ko'rsatmalarda texnik fanlarni o'ziga xos tomonlari yetarli darajada ochib berilmagan va hisobga olinmagan.

Ta'lim jarayonini sifatini belgilovchi ana shunday muammolarni hal etish uchun kasbiy fanlarni har biri bo'yicha ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida kasbiy fanni o'qitish uslublariga bag'ishlangan adabiyotlarni yaratish va ularni ko'plab nusxalarda chop ettirish ta'lim jarayonida hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Bitiruv malaka ishi «Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatishva ta'mirlash» fanidan **“Bo'laklarni jamlash”** mavzusini ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish uchun metodik tavsiya ishlab chikish bo'lib, yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishda bir kichik qadam bo'lib hisoblanadi deb o'ylaymiz.

Bitiruv malaka ishining asosiy maqsadi avtochilangar va haydovchilar tayyorlashda Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatishva ta'mirlash fanining ahamiyati, to'tgan o'rni, vazifasi va maqsadlarini, fanlararo bog'lanishlarini o'rganish va ularni ochib berishdan hamda **“Bo'laklarni jamlash”** mavzusi asosida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish uchun metodik tavsiya ishlab chiqish va mavjud adabiyot va qo'llanmalrdagi ushbu mavzu materiallarini tahlil qilishdan iborat. **“Bo'laklarni jamlash”** mavzusini ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish uchun metodik tavsiya ishlab chiqishda asosiy e'tiborni innovatsion texnologiyalar va ta'lim texnologiyalaridan dars jarayoniga tadbqiq etish, didaktik materiallar, tavsiya etiladigan adabiyotlar, dars jarayonini rejalashtirish va boshqa fanlarda o'tiladigan mavzular bilan bog'lanishlariga qaratilib, mavzuda belgilangan ta'limiy, tarbiyaviy va rejalashtirish maqsadlariga erishish imkoniyatlari yoritib beriladi.

2.1. Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash fanini tavsifi

Fani «Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish» bo'yicha texnik-mexanik, avtochilangar va haydovchilar tayyorlash o'quv rejasini kasbiy fanlar blokiga kiruvchi asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash fani o'quv jarayonida 3 -kursda o'tiladi. Fan jami 68 soatga mo'ljallangan bo'lib, shundan 18 soati amaliy mashg'ulot uchun ajratilgan.

Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash fanining asosiy vazifasi avtomobil transporti ishlash samaradorligini oshirishning asosiy manbalaridan biri avtomobil transporti ishlab chiqarish va ta'mirlash ishlarining takomillashuvi hisoblanadi. Ta'mirlash orqali avtomobil transportining xarakatlanuvchi tarkibini ishga yaroqliligini tiklash va tutib turish, ishlatish chog'ida yuzaga kelgan yoki texnik xizmat ko'rsatishda aniqlangan nosozliklarni xamda buzilishlarni bartaraf etish ta'minlanadi. Ta'mirlash paytida agregatlar, uzellar (yig'ma birliklar) va detallarning nosozliklari aylanma fondlardan olinganlariga almashtiriladi, shuningdek, qismlarga ajratish, rostlash, yig'ish, chilangarlik, mexanik, payvandlash, elektromexanik va boshqa turdagi ishlar amalga oshiriladi.

Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash fanining asosiy maqsadi ta'mirlash texnologiyalari asoslari bo'yicha bulgusi kichik mutaxassislariga nazariy va ilmiy dunyoqarash uslublari bilan bilim berish hamda ularni amaliy mustahkamlashga qaratgan.

Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash fanining o'qitish natijasida o'quvchilar quyidagilarga ega bo'ladilar:

- avtomobil transportining ta'mirlashning xalq xo'jaligidagi o'rini ko'rsatish va ilmiy-texnik o'sish asosida takomillashtirish yo'llarini o'rganadilar.
- avtomobil transporti korxonalari sharoitida ta'mirlash tizimlarini tashkil etish bo'yicha kerakli bilimlarga ega bo'ladilar.
- avtomobil agregatlari va detallarini konstruksiyalariga qarab, ish joyi material tarkibiga qarab texnologiyalarni tanlashni xamda ta'mirlashni o'rganadilar.
- ta'mirlash usullarini tanlashda iqtisodiy tahlil qilishni va qo'llashni.
- avtomobil uzellari va detallari nuqsonlarini bartaraf etishda kerakli texnologiya asosida jihoz va moslamalardan foydalanishni o'rganadilar.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida o'quvchilar avtomobillarni ta'mirlashda chuqur nazariy va amaliy bilimga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Chunki xozirgi zamon yetuk mutaxassisi avtomobillarni nuqsonlarini bartaraf etishda arzon, qulay zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni bilishi lozim.

Ushbu fanni «**Bo'laklarni jamlash**» mavzusi 8 soatga mo'ljallangan bo'lib, undan 2 soati amaliy mashg'ulotga ajratilgan.

O'quvchilar ushbu mavzuni o'tish jarayonida avtomobilni yig'ish uchun o'lchamlari joiz oraliqda bo'lgan turli o'lchamdagi detallar masalan, ruxsat etilgan qiymatda yeilgan yaroqli detallar, naminal va ta'mirlash o'lchamlariga tiklangan detallar hamda yangi detallar ishlatiladi. Detailarni saralashni, butlash ishlarini bajarishda moslashtirishni, ishlov berish usullarini, yakuniy ishlov berishni, rezbali detallarni butlash, ta'mirlangan avtomobilni ishonchliligi va ish sifatini oshirishlarni.

2.2. Fanlararo bog'lanishlar

Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash fani «Avtotransportni ishlatish va ta'mirlash» bo'yicha avtochilangarlar va haydovchilar tayyorlash uchun mo'ljallangan o'quv rejasining kasbiy fanlar blokiga kirib, asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Chunki o'quvchilar bu fanni o'rganish jarayonida haqiqiy kasbiy ko'nikmalar va bilimlarga ega bo'lishadi. «Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash» fani 3 bosqichda o'rganilib o'quv jarayonini tugallovchi asosiy kasbiy fanlaridan biridir.

Fanlararo aloqalar o'qitish jarayonida o'rnatiladigan yoki o'quvchi ongida aks etgan fanlar o'rtasidagi haqiqiy aloqalarning ifodasi sifatida qaralishi kerak. Fanlararo aloqalar ko'p qirrali, o'ziga xos turli xususiyatlarga ega bo'lgan hodisadir. Mazkur tushuncha mohiyatining bir qancha qarama-qarshi izohlari mavjud. Bu o'z navbatida barcha o'qituvchilar va ishlab chiqarish ustalarining hamda puxta o'ylangan didaktik usullar sistemasining maqsadga muvofiq ishlashini talab qiladi. Ushbu didaktik usullar fanlararo aloqalarni o'quvchilarning ongiga singdirishga yordam beradi.

O'qituvchilar fanlararo aloqalarni ko'p hollarda boshqa fanlarni o'rganishdan avval o'quvchilarning olgan bilimlarini «Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish va

ta'mirlash» fanini, ya'ni o'z fanini ancha to'liq va chuqur ochib berish uchun foydalanish omili sifatida tushunadilar. Fanlararo aloqalarni ancha keng ma'noda tushunmoq kerak: ta'lim berilayotgan ob'ekt, bilim olishi va tarbiyasiga pedagogik ta'sir ko'rsatilayotgan o'quvchilar o'quv jarayonida qanday ishtirok etishlariga e'tibor qaratmoq zarur.

Shu narsa ma'lumki, bo'lajak ta'mirlovchi chilangarlarni o'qitishda texnikaviy chizmachilik, texnik mexanika, umumiy elektrotexnika asoslari, metallar texnologiyasi, standartlashtirish texnik o'lchov asoslari, mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi, avtomobil korxonalari ish faoliyatini rejalashtirish, ularni iqtisodiyoti va tahlili, yo'l harakati qoidalari va xavfsizligi, avtomobil tuzilishi, avtomobil va dvigatellar nazariyasi, avtomobillar ishlatiladigan ashyolar, avtomobil elektr jihozlari, boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimi va avtomobillarda tashish fanlaridan olingan bilimlardan oqilona foydalanmay turib, avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash sohasi, nosozliklarga yoki buzilib qolishlarga bog'liq bo'lgan extiyoj bo'yicha ham xarakatlanuvchi tarkib ma'lum bir masofani bosib o'tgandan so'ng yoki uni ishlatish chog'idagi oldindan belgilangan vaqtda, ham reja bo'yicha bajariladi. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning rejali extiyot tizimi turli xil nosozliklarni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishni ta'minlaydi xamda extiyot detallar sarfini va ta'mirlash ishlarining xajmini qisqartiradi. Ushbu usulda detallarni ta'mirlashni ilg'or usullarini qo'llash lozim.

Fanlararo aloqalarni aniq ma'nosini o'quv jarayonida fanlar o'rtasida va o'quvchilar ongida shakllanadigan haqiqiy aloqalar ifodasi sifatida tushunmoq kerak. Pedagogik talablar birligiga ham fanlararo aloqalar mezoni sifatida qarash lozim. Buning uchun kasb-hunar kollejida metodik ishlar yordami bilan butun pedagogik jamoa ishlarini muvofiqlashtirish zarur. Bir-biriga yaqin fanlarda (Masalan, «Avtomobillarda ishlatiladigan ashyolar» va «Avtomobil va dvigatellarga nazariyasi») biror bir masalani, jumladan «Moylash ishlari» mavzularini bir vaqtda o'rganishga to'qri kelganda, mazkur fanlarni o'qituvchilari metodikani kelishib olishlari va ularning har biri mazkur masalani qaysi tomoniga e'tibor berish lozimligini aniqlab olishlari lozim. Demak, fanlararo aloqalar darslarda o'quvchilarning faoliyatini oshirishga ta'lim berishda ijodkorlikni rivojlanishiga yordam beradi, o'quv materialini takrorlanishini oldini oladi va o'quv vaqtini dasturda ko'rsatilgan materialni o'rganish uchun tejaydi.

Fanlararo aloqalar o'quvchilarni aqliy o'sishi uchun muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish va ularni hal qilish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

2.3. An'anaviy dars o'tishning qisqacha bayoni va uni zamonaviy dars o'tish usullari bilan qiyoslash

Hozirgi kunda bo'tun dunyo mo'taxassislari an'anaviy pedagogikani tanqid qilishda hamjihatdirlar. Zamonaviy o'qitishda hano'z umumiy tushunchalar, qoida va qonuniyatlar o'rganiladigan «Bilimli» yondoshuv ustivordir. O'qituvchilarni real dunyo ob'ektlari bilan ishlashi hajmi va mazmuni jihatidan juda kam. Yetakchi ta'lim sohalarini o'rgani odatda o'quv ma'lumotlarini katta hajmini o'zlashtirish bilan cheklanadi. O'quv dasturlari, qo'llanmalari, undan ham ko'proq bevosita o'qitish amaliyotida real dunyo tegishli tushunchalarni o'rganish bilan almashinadi.

O'qitishda an'anaviy yondoshishning asosiy tavsiflarini ko'rib chiqamiz:

- qo'llanishi-bilimlarni uzatish va mavjud madaniyat, ijtimoiy tajriba, ijtimoiy tizimni qo'llab quvatlash;

- turi-davlat manfaatiga qaratilgan;

- tavsifi-reproduktiv;

- o'qitishni tashkil qilish-kasbi faoliyat va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash, yangi ijtimoiy-madaniy tajdribani o'zlashtirish maqsadida;

- o'qitishning mazmuni-klassik, predmetli, texnokratik;

- o'qituvchining roli-bilimlar uzatuvchisi, o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish maqsadida tuzilgan o'quv jarayonini tashkilotchisi;

- an'anaviy o'qitish tushunchasi pedagogika bo'yicha adabiyotlarda albatta yangi, istalgan o'qitish usullarida zid qo'yish maqsadida 10 yillar davomida uchraydi.

Bunda an'anaviy o'qitishning odatdagi tavsifi bizda ham xorijiy pedagogikada ham quyidagi asosiy alomatlar bilan tavsiflanadi:

- yangi materialni deyarli hammasi o'qituvchi tomonidan og'zaki bayon etiladi;

- darslik asosan mustaqil ish uchun qo'llaniladi;

- auditoriya mashg'ulotlari paytida darsliklar ayrim hollarda pedagog tushuntirishlaridan o'quvchilar diqqatini buzmaslik maqsadida qo'llanilmaydi;

- ko'pincha darslik uyda ham qo'llanilmaydi: uning o'rniga dars paytida tuzilgan konspekt bosadi;

- bilimlarni tekshirish asosan mashg'ulot vaqtini sezilarli qismini egalaydigan shaxsiy og'zaki so'rovlari hamda uzoq muddatlarda o'tkaziladigan nazorat ishlari yordamida amalga oshiriladi. Oxirgi yillarda ob'ektiv testlar ham keng tarqaldi;

- mashg'ulotlar paytida aksariyat hollarda ishning frontal usuli qo'llaniladi, mustaqil ishning nisbiy miqdori juda kam.

O'qitishni bunday tizimini eng jiddiy kamchiligi-talabalarni mashg'ulotlardagi passivligi va bundan kelib chiqadigan uning past samarasi. Ayrim o'quvchilarning faollik darajasi juda ham past.

O'qitishda an'anaviy yondoshuvlar qatoriga odatda quyidagi usullarni kiritadilar:

- tushuntiruvchi-tasviriy (Imnformation-retseptiv, informatsion-bildiruvchi);

- reproduktiv usul.

Informatsion-retseptiv usulni mohiyati uning quyidagi alomatlari bilan tavsiflanadi:

- bilimlar talabalarga «tayyor» holda taqdim etiladi;

- o'qituvchi turli yo'llar bilan bu bilimlar qabul qilinishini tashkil qiladi;


- o'quvchilar bilimlarni qabul qiladilar va ularning ma'nosiga yetadilar, o'z xotiralarida saqlab qoladilar.

Ta'limning reproduktiv usulida quyidagi alomatlar alohida ajralib turadi:

- o'qituvchi bilimlarni «Tayyor» holda faqat bayon qilish bilan cheklanmasdan ularni tushintiradi ham;

- o'quvchilar bilimlarni tushinib o'zlashtiradilar. O'zlashtirishning mezoni-olgan bilimlarni to'g'ri tiklash dir;

- o'zlashtirishni mustahkamligi informatsiyani ko'p marta qaytarish yo'li orqali ta'minlanadi. Quyida ta'lim modellari bo'yicha metodlar tizimiga batafsil to'xtalib o'tamiz.



2.1-rasm. Ta'lim texnologiyasi bo'yicha metodlar tizimi.

Aytib o'tilgan usullarni unumi pastligidan tashqari o'quvchilarni tayyorgarligida quyidagi kamchiliklar qayd qilinadi: ilmiy bilishni ishonishdan ajrata olmaslik, bilim va haqiqat orasidagi

munosabatlarni tushunmaslik, ilmiy informatsiyalar turli toifalari; faktlar, gipotezalar, qonunlar va tamoyillar, modellar, nazariy xulosalar va tajriba natijalarining ishonchlilik darajasini ajrata olmaslik; nazariy tushuntirish, bashorat qilish, oldindan ko'ra bilish orqali fikr yuritish bo'yicha ko'nikmalarni yo'qligi.

2.4. Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati.

2.4.1. Didaktik o'yinlarni ta'lim jarayonidagi ahamiyati.

O'yin – mehnat, o'qish va muloqot kabi shaxs faoliyati turlaridan sanalib, u o'quvchi faoliyatining ushbu turlari o'rtasida o'zining muhim o'rniga egadir. O'yin o'quvchi shaxsining har tomonlama kamol topishida katta ta'sir kuchiga ega. O'yin o'quvchini aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik ruhda tar-biyalashning muhim vositalaridan hisoblanadi. O'yin vaqtida sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot va boshqa ruhiy jarayonlar faol ishtirok etadi.

O'yin o'quv muassasasining talaba va o'quvchilarida jamoaparavarlik, intizomli bo'lish, jasurlik, qat'iyat, qiyinchiliklarni yenga bilish kabi si-fatlarning tarkib topishiga yordam beradi.

Garchi o'yin o'z mazmuni bilan hayotiy faoliyatning in'ikosi bo'lsa-da, lekin o'yinlarning o'ziga xos 3 ta asosiy xususiyati bor:

- 1) shaxs o'yin faoliyatini erkin, o'z xohishi bilan bajaradi;
- 2) o'yin faoliyati ijodiy va aktivdir;
- 3) o'yin harakatlari yuqori darajada hissiy ta'sirchandir, ya'ni shaxs o'yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, shaxsda o'rtoqlik hissi kuchayadi.

O'yin qoidalari. Qoidalar o'yinning bir qator jabhalariga oid chega-ralashlarni o'z ichiga oladi: o'yinning undagi mazmun bilan bog'liq bo'lgan texnologiyasi; o'yin tadbirlarining va ulardagi qismlarning reglament; o'yinni boshqarayotgan o'qituvchilarning roli va vazifalari, baholash tizimi; o'yinchilarning o'zaro harakati usullari; ko'tilmagan vaziyatlarni ko'ra bi-lish mumkinligi.

O'yinning qoidalari juda ko'p bo'lmasligi kerak, aks holda o'yin ko'p narsani eslab qolish bilan bog'liq bo'lib qoladi va u o'z mohiyatini yo'qotib qo'yadi. O'yin qoidalarining eng maqbul miqdori 5–10 tadan iborat. Bu qoidalar bilan bo'tun auditoriya o'quv plakatlar yoki o'qitishning texnik vosi-talari yordamida tanishtiriladi.

O'yinning uslubiy va texnik ta'minoti quyidagilardan iborat: o'yin loyihasi; o'yin stsenariysi; o'yinni tashkil etish, o'tkazish va o'yin natija-larini e'lon qilish shakllari haqidagi uslubiy tavsiyalar; har xil shakl-dagi blankalar va boshqa turdagi hujjatlarning namunalari; o'yinda qo'lla-niladigan texnik vositalar ro'yxati; elektron dasturlar va tegishli axbo-rotli va matematik ta'minot.

O'yin jarayonida har bir o'yinchi quyidagidek bosqichlardan iborat tartibda faoliyat yuritadi: maqsad qo'yish, rejalashtirish, maqsadni amalga oshirish, o'yinchining o'yin jarayonida o'z o'zligini qanchalik miqdorda namo-yish eta olganligi natijalarini tahlil qilish.

Jarayon sifatida o'yin quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi: o'yinchilar tomonidan tanlangan rollar; shu rollarni amalga oshirish vosi-tasi sifatida bajariladigan harakatlar; haqiqiy-hayotiy narsalar o'rnida o'yin jarayonida o'yinchoq yoki shartlilik sifatida ishlatib turiluvchi narsalar; o'yinchilar o'rtasidagi haqiqiy munosabat; syujet (mazmun) – o'yinda ifoda topdiriladigan hayotiy soha.

Pedagogik o'yinlar turli-tuman bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi: didaktik maqsadlar bo'yicha, tashkil etilishiga xos tarkibot bo'yicha, o'yinchilarning yoshi bo'yicha, o'ziga xos mazmuni bo'yicha.

Ta'lim-tarbiya tizimida o'quvchi va talabalarda kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish jarayonini jadallashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Bunda ta'limning an'anaviy usul-lari bilan birga yangicha usullardan ham foydalanish muhimdir. Bunday usullar qatoriga, xususan, **didaktik o'yinlarni** kiritish mumkin.

O'qishga qiziqishni rag'batlantirishning muhim usuli sifatida bilishga oid o'yinlarni qo'llash ijobiy natijalar beradi. U o'quv jarayonida o'yin vaziyatini yaratadi. O'qishga qiziqishni uyg'otuvchi vosita sifatida har xil o'yinlar azaldan qo'llab kelinadi. Masalan, sayohat, elektroviktorina, krossvord, rebus, chaynvord singari aql-zakovat talab qiluvchi o'yinlar mu-ayyan hududlarning hayvonot dunyosi, o'simliklari, kemalar, avtotransport vositalarining tuzilishi, ularga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ma'lumotlarni atroflicha o'rganish imkonini yaratadi.

Kasbga oid pedagogik o'yinlar mutaxassis-pedagog va muhandis-pedagoglarga o'zlarining psixologik va pedagogik bilimlari asosida ijodiy say'i-harakat qilishlariga keng imkoniyat yaratadi.

O'yin – chegaralangan ma'lum vaqt davomida qarorga kelish va uni ijro etishdan iborat harakatlar tizimidir. Odatda, qarorga kelish va pedagogik harakatlarni bajarish uchun zarur sharoitlar o'yinni tashkil etuvchi rahbar tomonidan sun'iy ravishda yaratiladi.

Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish ustida ish olib borayotgan olimlar tomonidan pedagogik o'yinlarning bir qancha xillari ishlab chiqilib, nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ularning quyidagi xillari mavjud:

- o'quv-ishchanlik o'yinlari (Verbitskiy A.A., Pidkasistiy P.I. va b.);
- imitatsion-modellashtirish o'yinlari (Klarin M.V.);
- vaziyatga qarab rolli o'yinlar (Bogomolova I.I., Petrovskaya A.A.);
- ta'limiy o'yinlar (Haydarov J.S.);
- taqlidchilik o'yinlari (Lebedeva M.M.);
- pedagogik-tarbiyaviy o'yinlar (Mamiginova T.A., Mamiginov Z.G., Kulyutkin Yu.N., Tyunnikova S.M. va b.);

- o'quv-taqlidchilik o'yinlari (Iryukov M.M., Znamenskaya O.P.);
- operatsion o'yinlar (Grem R.G., Grey K.F.);
- didaktik o'yinlar (Semyonova Ye.V., Strazdas N.N.);
- o'quv-rolli o'yinlar (Korovyakovskaya Ye.P., Yudina O.P.);
- ishchan-pedagogik o'yinlar (Penkova R.I., Fyoderin M.V.);
- bilishga mo'ljallangan o'yinlar (Babanskiy Yu.K.).

O'yin tashkilotchisi, ya'ni muhandis-pedagoglar tayyorlaydigan o'quv yurti o'qituvchisi o'quv yili boshida zarur o'yinlarning mazmuni va ularning sonini o'ylab ko'rishi kerak. Ko'p miqdordagi o'yinlarni rejalashtirish tavsiya qilinmaydi. Sinovdan o'tgan o'yinlarning o'quvchilar tarkibiga muvofiq tarzda tanlanilgani ma'qul.

O'yin konkret maqsadni ko'zlamog'i kerak. Uni quyidagi sharoitlarda qo'llash tavsiya qilinadi:

a) o'yin qatnashchilarining yetarli pedagogik tajribalari bo'lgan taqdirda;

b) o'yin rahbari va qatnashchilarining, jyuri a'zolarining qabul qilgan qaror va bajarilayotgan hatti-harakatlarning fakultet miqyosida so'z va sifat tomonidan tayyorligini nazarda to'tish;

v) pedagogik o'yinlarni o'tkazish jadvalini hisobga olgan holda maqsadni belgilash va hokazo.

Tortishuv-fikrlov faoliyatini faollashtirish elementlari bilan bog'liq bo'lgan har qanday xatti-harakatnio'yin deb atab bo'lavermaydi. O'yin oldiga qo'yiladigan ma'lum talab va qoidalar mavjud.

O'yinni to'g'ri tashkil qilish shartlari. Pedagogik o'yinni to'g'ri tashkil qilish uchun quyidagi uch qoidaga rioya qilish zarur:

Birinchi, o'quv-pedagogik vazifani tanlab, uning dinamikasini ham qarab chiqish; o'yin kasb-hunar kollejining bo'lg'usi o'qituvchisi, ishlab chi-qarish ta'limi ustasining bir zumda qarorga kela olish va o'z rejasini sifatli bajara olish ko'nikmalarini mashq qilishga xizmat qilishi kerak.

Ikkinchidan, o'yin ishtirokchilari raqiblarni tanlash kerak. Ularning kuchlari teng bo'lishi kerak.

Uchinchidan, o'yin davom etadigan vaqt miqdorini ham belgilash kerak. O'ta cho'zilib ketadigan o'yin o'z mazmunini va sifatini yo'qotadi.

Pedagogik o'yinlar tashkil qilinishi holatiga qarab o'quv karakteri-dagi boshqa mashg'ulotlardan farq qiladi.

Pedagogik o'yin mashg'ulotlari sun'iy tashkil qilinadi. Bunda o'yin ishtirokchilari ma'lum rollarni bajaruvchi (ishlab chiqarish ustalari, o'qi-tuvchi, bosh usta, ota-ona, tarbiyachi, rahbar va boshqalar) yoki faol kuzatuvchi sifatida qatnashib, o'yin harakatini baholaydilar. Pedagogika fanini o'qitishni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, pedagogik o'yinli mashg'ulotlar talabalarning bilish faoliyati-ni yanada takomillashtirishga ko'maklashadi (mashg'ulotda ular faol qatnashi-shadi, ekspertlar mustaqil xulosalar chiqarishadi, qo'yilgan maqsadlar ro'yobga chiqadi va talabalar mashg'ulotlarni ma'lum bilimlarga ega bo'lgan holda tark etadilar).

Pedagogik o'yinli mashg'ulotlar o'qitishning faol, samarali usuli hisoblanadi. Pedagogika fanini o'qitishda o'quv kompleks turdagi pedagogik o'yinli mashg'ulotlarda qatnashuvchilarning nafaqat kasbiy bilim va malakalari, balki shaxsning ayrim kasbiy va axloqiy xususiyatlari (tayyorgarlik, bajaruvchanlik, ijro etuvchanligi, ijodiy faollik, intiluvchanligi, asoslanganligi, jamoatchilik va boshqalar) ham shakllantiriladi. Kompleks pe-dagogik o'yinli mashg'ulotlar mazmunida pedagogika tarixi, milliy pedagogika, psixologiya,maxsus fanlarni o'qitish metodikasi kabi fanlarning o'quv materiallari o'z aksini topadi. Pedagogik o'yinli mashg'ulotlar mo'taxassisni bo'lg'usi kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta'lim olishga qiziqishini uyg'otishga va guruhni

jipslashtirishga imkon beradi.

SHuni ta'kidlash joizki, pedagogik o'yinli mashg'ulotlar qatnashchilaridan rollarni o'ynashda avval o'rganilgan bilimlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi va umumiy me'yor qoidalarini bajarishni talab qiladi. Haqiqiy pedagogik o'yinli mashg'ulotlar o'zida o'quv-o'yin elementlarini mujassamlashtirishi kerak. Pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni asosiy yo'nalishlari bo'yicha shartli ravishda quyidagi uch qismga bo'lish mumkin: aniq pedagogik malakalarga o'rgatish; talabalarni o'yin jarayonida o'zaro harakatda bo'lishini o'rgatish; talabalarga pedagogik psixologiya, o'qitish uslubiyoti fanlari-dan ma'lum darajada bilim berish hamda ularda pedagogik tafakkurni ri-vojlantirish.

Pedagogik o'yinli mashg'ulotlarning mohiyati va tamoyillari. Pedagogika fanini o'qitish tajribasida pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni keng qo'llashning ijobiy va salbiy tomonlari mavjuddir. Ijobiy tomon: shaxsni shakllantirishda qurol sifatida foydalanish imkoniyatiga egaligi bilan tasdiqlanadi va o'quv jarayonini faollashtirish maqsadlari bilan tasdiqlanadi hamda o'quv jarayonini faollashtirish maqsadlari bilan amalga oshiriladi. Salbiy tomoni quyidagi hollarda vujudga keladi, ya'ni o'yinli darslarni ishlab chiqishning psixolo-pedagogik, ilmiy-uslubiy asoslariga tayanilmaydi, o'yinli darslarning faqat tashqi shakligina olinadi.

Pedagogik o'yinli mashg'ulotlarning mohiyatini pedagogika va psixo-logiya fanlarining o'quv tarbiyaviy jarayonisiz tushunib bo'lmaydi. Pedagogik o'yinli mashg'ulotlar "og'ir artilleriya" bo'lib, uni o'quv jarayonining boshqa usullari bilan amalga oshirish mumkin bo'lmagan hollardagina qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Kompleks pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni ishlab chiqish ularni modellashtirish bilan birlashtirishni taqozo etadi. Ya'ni, o'yin qatnashchilari uchun o'zaro bog'langan pedagogik holatlarning modelini tashkil etish kerak. Hozirgi kunda pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha konsepsiya yo'q. SHuning uchun pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni psixolog-peda-gog olimlarning ko'rsatmalariga tayangan holda olib borilmoqda.

Pedagogik o'yinli mashg'ulotlarning mohiyati. Kasbiy faoliyat ijtimoiy va predmetli mazmunli faoliyat hisoblanib, u aniq mehnat turiga taalluqli bo'ladi va o'zaro aloqa tizimini modellashtiradi. SHu bilan birga, pedagogik o'yinli mashg'ulotlar o'quv jarayonining aniq sharoiti va dinamikasini tiklovchi taqlid modellar asosi bo'lib, uning qatnashchilari uchun o'yinli faoliyat hisoblanadi. SHuningdek, pedagogik o'yinli mashg'ulotlar ikki omilni: o'quv-tarbiyaviy hamda undagi ta'lim oluvchilarning faoliyat jarayonini namoyon etadi.

2.4.2.O'z xarakteriga ko'ra turlicha bo'lgan pedagogik o'yinlarni o'tkazish bosqichlari.

Qatnashuvchilarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishlarisiz o'ynaladigan o'yinlar.

I-bosqich. O'yin rahbarining o'yin tashkiliy masalalarini hal qilishi (o'yin qoidalarini tushuntirish, u haqidagi dastlabki axborotlar, yakka tartibdagi maslahatlar, o'yin guruhlarini shakllantirish).

II-bosqich. O'yin maqsadlarini va ramziy belgilarini tayyorlash (yozuvlar, plakatlar, o'yin joyi va ularni tayyorlash). Odatda pedagogik o'yinlarni o'tkazish uchun maxsus sinf xonasi bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'yin rahbari ko'zda to'tilgan vazifalar, zarur anjomlar haqida tegishli yo'riqnomalarni ham (pedagogik axborotlarni) ishlab chiqadi.

III-bosqich. O'yinni o'tkazish jarayoni.

O'yin rahbarining ko'rsatgan yagona pedagogik axborotlari asosida guruhlarda (zvenolarda) turli qarorlar qabul qilinadi. Qoidaga muvofiq oliy o'quv yurti yoki kollej o'qituvchisining o'yin qatnashchilari o'rtasida musobaqalarni tashkil etishdagi asosiy qiyinchilik ularning yuqori natijalarga erishishlarini ta'minlashdan iboratdir (birinchi qadam).

Musobaqalar oshkora bo'lishi kerak. Pedagogik o'yinlar ma'lum model asosida tashkil etiladi. O'yin qatnashchilari qaror qiladilar, uni rasmiylashtiradilar, jyuriga yoki maxsus baholash guruhiga topshiradilar.

Jyuri yoki hisoblash guruhi a'zolari bo'lajak pedagoglarning imkoniyati bo'lgan harakat variantlarini yoki oldindan to'g'ri hal qilingan variant-lar kiritilgan EHMLardan foydalanishni to'la tasavvur qilishlari kerak.

SHunday keyingina o'yin rahbari navbatdagi pedagogik axborotni tav-siya qilishi mumkin (ikkinchi qadam) va hokazo.

IV-bosqich. O'yin natijalarini tahlil qilish. G'oliblarni aniqlash.

O'yin rahbari o'yin qatnashchilarining strategiyasini qiyoslab ko'rishi, muvaffaqiyatni ta'minlaydigan qaror qabul qilish asosiy qonuniyatlarini ochib berishi kerak. Bu bosqichning o'z

navbatida ta'limiy va o'z me'yori bi-lan baholovchi xarakterga ega bo'lishi kerak. Pedagogik axborotlar miqdori (qadamlar yoki pedagogik vaziyatlar) kat'iy qayd etib borilishi kerak. Bu o'yin sur'ati va unga ajratilgan vaqtga karab o'zgarishi mumkin. Eng past natijaga erishgan o'yinchi yoki o'yinchilar guruhi chiqishini tahlil qilishdan boshlash kerak. Bu tahlil, o'yinchining har bir konkret holatda chiqishlarini, qaysi ko'rsatma va yo'riqnomalarga rioya qilganligi haqida hikoya qilishi kerak.

SHundan keyin o'yin g'olibi chiqishi kerak. U o'z varianti mohiyatini ochib berishi kerak. Ikki o'yin ishtirokchisining hatti-harakatlarini solishtirib ko'rish asosida munozaralar tashkil etiladi.

Brigada, zveno yoki ular tarkibidagi a'zolarining o'zaro birgalikdagi harakatlari bilan tashkil etiladigan o'yinlar. Qoidaga ko'ra bunday turdagi o'yinlar o'quv yili oxirida, bo'tun kurs yoki uning biror bo'limini o'tib bo'lgandan keyin o'tkaziladi. Bunday pedagogik o'yin axborotlari kompleks harakatga ega bo'lishi kerak (mehnat psixologiyasi bilan, fi-ziologiya bilan, mehnat muhofazasi bilan, umumiy va pedagogik psixologiya bilan, o'qitish metodikalari bilan bog'langan bo'lishi kerak).

O'yin paytida uning ishtirokchilari guruhlariga, brigada va zvenolarga bo'linadi. Guruhlardan biri kasb ta'limi boshqarmasining vakili sifatida uning boshqaruvchisi yoki boshliq muovini, masalan, o'quv ishlari bo'yicha muovini rolini o'ynashi mumkin. Ikkinchisi esa ishlab chiqarish ta'limi ustasi yoki katta usta bo'lishi mumkin. Qolganlari esa kasb-hunar kolleji-dagi maxsus texnologiyalar fani o'qituvchilari, kollej o'quvchilari, bazaviy korxonalar vakillari, kollej rahbarlari funktsiyasini bajarishlari kerak.

Jyuri va o'yin qatnashchilari, shuningdek, "o'rtachilar" o'yinni uning tashkilotchisi rahbarligida olib borishlari kerak. Guruh uchun (brigada va zveno uchun) yo'riqnomalar oldindan tayyorlab qo'yilgan va tushuntirilgan bo'lishi kerak. "O'rtachilar" rahbardan aniq ko'rsatmalarni olishlari kerak.

Yo'riqnoma va topshiriqlar yetarli darajada mufassal bo'lishi kerak.

O'yin tahlili qoidaga ko'ra, uning har bir qadami (bosqichi)dan keyin o'tkaziladi. Bunday yondoshuv qatnashchilarning qiziqishlarini susaytirmay-di, ularning manfaatlarini hisobga olishni ta'minlaydi.

Bunday o'yinlarning tashkil etilishi jarayonida kasb-hunar kolleji, umumta'lim maktablari va baza korxonalari vakillarining manfaatlari yuzma-yuz keladi. O'quvchilar amaliy tajribalarini boyitadilar, olgan psi-xologik-pedagogik bilimlarini hisobga olgan holda ma'lum qarorga kelish ko'nikmalarini hosil qiladilar.

Odatda "o'rtachilar" o'yinning borishiga qarab, o'z vaqtida qo'shimcha pedagogik axborotlarni berib turishi kerak (o'yinni soddalashtirish yoki murakkablashtirish uchun). "O'rtachilar" guruhining maqsadi – o'yinni boshqarish, zarur bo'lsa, hatto, bu guruh o'yinni davom ettira olishlari kerak.

«ROLI O'YIN» metodi

Rolli o'yin – ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir.

Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni yechish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinaadi.

«Rolli o'yin» metodida o'qituvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. CHunki rollarni o'ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak.

«Rolli o'yin» metodining afzallik tomonlari:

- o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllan-tirishga yordam beradi;
- ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatadi;
- ta'lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

«Rolli o'yin» metodining kamchilik tomonlari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- o'qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning o'yinga tayyorgarligi turlicha bo'lishi mumkin;

- barcha ta'lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

Syujetli-rolli o'yinlar

Ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil bilim egalash ko'nikmalarini rivojlantirish va o'zlarida mujassamlashgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qullash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishda syujetli-rolli o'yinlar muhim rol o'ynaydi.

Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat va tabiiy hodisalarning o'rtasidagi aloqalarni badiiy ko'rinish tarzda yoritish asosida vujudga keltirilgan muommalarni hamkorlikda, bosqichma-bosqich hal etish jarayonida yangi bilimlarni egallashga qaratilgan didaktik o'yinlarni syujetli-rolli o'yinlar deb atash lozim. Bunday syujetli-rolli o'yinlar jamiyatdan yoki tabiatdan olinadi.

Ijodiy o'yinlar

Ta'lim oluvchilarning ijodiy izlanishi, mustaqilligi, mantiqiy fikr-lashini rivojlantirishda, qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qon-dirishda ijodiy o'yinlar muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim jarayonida vujudga keltirilgan muommali vaziyatlarni ta'lim oluvchilar guruhining o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini ijodiy izlanishi va qo'llanishi orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o'yinlarni ijodiy o'yinlar deb atash lozim.

Mazkur didaktik o'yinli darslarda hamma ta'lim oluvchilar hamkorlikda ishlaydilar, avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qullab yangi bilimlarni egallaydilar. Bu esa ta'lim oluvchilarning o'z bilimlariga, iqtido-riga ishonch uyg'otadi va har bir ta'lim oluvchi sidqidildan hamma jiddiy tayyorgarlik muvaffaqiyat garovi ekanligini anglagan holda bilim olishga kirishadi.

Bunday o'yinlarda eng muhimi o'yinchilar hatti-harakatlarini to'g'ri baholash, tashabbuskorliklarini o'z vaqtida rag'batlantirib borish, umumiy vazifani hal qilishda har bir ishtirokchining qanday hissi borligini aniq bilishdan iboratdir. Bunday o'yinlarni kafedralararo asosda ham tashkil etish mumkin, masalan, pedagogika va psixologiya kafedralarida bunga fiziologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedralari ham qo'shilishi mumkin. Ularning takliflari asosida o'yin stseniysini tuzib, so'ng ja-moa bo'lib ishlashlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

2.5. Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash fanini o'qitishda innovatsiya, ta'lim texnologiyalari va interfaol usullar.


2.5.1. O'qitishda innovatsiyalar.

Innovatsiya tushunchasi tadqiqotlarda "yangilik kiritish" tushunchasi sifatida ko'rib chiqiladi, "innovatsion jarayon" tushunchasi esa yangilik yaratish va ularni o'zlashtirish hamda ta'lim muassasasi amaliyotida samarali qo'llash jarayoni sifatida ifodalanadi.

Demak, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda innovatsiya (yangilik kiritish) – maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishlar bo'lib, innovatsion jarayon – pedagogik jarayonlarga yoki pedagogik faoliyatga o'zgartirishlar (yangilik) kiritish jarayoni deb aytishimiz mumkin.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda innovatsion jarayonlarni tashkil etish asosida ko'zlangan natijalarga erishishda, eng avvalo, ta'lim muassasasidagi mavjud muammolarni o'rganish va tahlil qilish va ularni bartaraf etishda bajarilishi zarur bo'lgan vazifalarni, maqsadni aniqlash, shuningdek, pedagogik jarayon sub'ektlarining imkoniyati va ehtiyojlarini inobatga olish zarur.

Pedagogik tizim modeli



Pedagogik tizimni takomillashtirish yo'llari

► **Intensiv**

► **Ekstensiv**

Intensiv yo'l – pedagogik tizimni rivojlantirishning ichki imkoniyatlarini ishga solish hisobiga amalga oshiriladi.

Ekstensiv yo'l – pedagogik tizimni rivojlantirishning qo'shimcha kuchlari (investitsiyalar) – yangi vositalar, jixozlar, texnologiyalar, moliyalashtirish, kapital ta'minot asosida amalga oshiriladi.

O'quv tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning asosiy yo'llaridan – o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, liberilizatsiya etishni **innovatsion holat** deb qaraladi.

Darsni insonparvarlashtirish:

- Hamkorlik;
- Talabaga g'amxo'rlik;
- E'zozlash;
- Kechirimli bo'lish;
- O'zini – o'zi rivojlantirishga muhit yaratish;
- Psixologik sog'lom muhit yaratish;
- Ijodiy muhit;
- Do'stona munosabatda ish yuritish;
- Talaba extiyoji, qiziqishi, shaxsiy fazilati, iqtidorini ishga solish.

O'qituvchi innovatsion faoliyatni tashkil etish, uni shakllanish bosqichlari

- 1 – **bosqich** Tayyor metodik tavsiyalar aniq qilib ko'chiriladi, qo'llaniladi.
- 2 – **bosqich** Mavjud bo'lgan tizimga ayrim yangi masalalar (modifikatsiyalar) metodlar kiritiladi.
- 3 – **bosqich** Yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakli to'la ishlab chiqiladi.
- 4 – **bosqich** O'qituvchi o'qitish va tarbiyalashning o'z kontseptsiyasini va metodikasini ishlab chiqadi.

2.5.2. O'qitishda ta'lim texnologiyasi.

Ta'lim texnologiya elementlarini tanlash va ularni amalga oshirishda amaliyotdagi oddiy qoida shu haqda guvohlik beradiki, yangi bilimlarni berish nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida amalga oshirish, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirib, ta'lim oluvchilarning bilimlarini mustahkamlash kerak.

Har qanday holatda ham nazariy dars jarayonida, masalan faqat ma'ruza o'qiladigan vaqt 20 daqiqadan oshmasligi kerak.

CHunki o'rganishning dastlabki 20 daqiqasi eng samarali, 30 daqiqadan ke-yin esa o'rganishni davom ettirish motivatsiyasi tezda pasaya boshlaydi.

Bu hamma takliflar ta'lim oluvchining diqqatini uzoqroq vaqtgacha saqlab turishga xizmat qiladi.


Idrok qilish paytida qancha ko'p sensorik (sezgi) kanallardan foydalanilsa, esda olib qolingan bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Agar bilimlar faqat «ma'ruza»lar orqali (passiv tinglash yo'lida) berilgan bo'lsa, unda 3 kundan so'ng ularning faqat 25% ini eslash mumkin xolos. Agar u ma'ruzalar o'qish (tinglash), namoyish va ko'rgazmali qilish (ko'-rish, ushlab ko'rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to'g'risida bahsla-shilsa, unda 3 kundan so'ng 75% ini esga tushirish mumkin.

Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga o'qitish metodlarining ta'sir darajasi

1. Ma'ruza eshitganimizning 5%
2. O'qish o'qiganimizning 10%
3. Videousul, namoyish - ko'rganimizning 20%
4. Tajribani namoyish qilish - ko'rgan va eshitganimizning 30%
5. Bahs-munozara - muhokama qilganimizning 40%
6. Mashqlar - o'qigan, yozgan, gapirganimizning 50%
7. Ishbop o'yin, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash - mustaqil o'qiganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, himoya va namoyish qilganimizning 75%

8. Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o'qitish – mustaqil o'rganganimiz-ning, tahlil va muhokama qilganimizning, boshqalarni o'qitgan narsalarimizning 90%.



Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadi-ki, dars jarayonida no-an'anaviy metodlar qo'llanilganda, ta'lim oluvchilarning axborot-ni eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori darajasi 30% ni tashkil etar ekan. Noan'anaviy metodlar qo'llanilganda esa, ta'lim oluvchi-larning axborotlarni o'zlashtirish darajasi yanada ortib boradi.

Quyida ta'lim jarayonida foydalanmoqchi bo'lgan metodlarni tanlash vaq-tida hisobga olish lozim bo'lgan ayrim jihatlarni ko'rib chiqamiz.

Har qanday ta'limning maqsadi-bilimni hamda uni amalda qo'llay bilish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatleri va ko'rsatmalarni ishlab chiqishdir.

O'quv faoliyati harakatida maqsadning barcha komponentlari amalga oshar ekan, turli metodlarni birgalikda qo'llash zarur. SHuning uchun, metod tanlashda eng asosiy omil bo'lib, aniq o'quv mashg'ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

2.1-jadval

<i>O'quv maqsadi</i>	<i>Metodlar</i>
Bilim	Ma'ruza, namoyish, videousul, bahs-munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, ishbop o'yin, rolly o'yin, muammoli vaziyat, loyihalash, davra suhbatlari
Ko'nikma va malaka	Laboratoriya ishlari, amaliy mashqlar, to'rt pog'onali metod, ishbop o'yin, rolly o'yin, muammoli vaziyat, loyihalash, yo'naltiruvchi matn

Metod tanlash nafaqat o'quv maqsadidan, balki o'quv material mazmuniga va bu fanning murakkabligiga bog'liq. Bundan tashqari metodlarni tanlashda ta'lim oluvchilarning soni, ularning o'quv imkoniyatlari, ta'limning davomiyligi, o'quv-moddiy sharoitlar va o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Ta'lim oluvchilarning soni. O'quv guruhidagi ta'lim oluvchilarning soni muhim ahamiyatga ega. Agar ular ko'pchilik bo'lmasa, eng faol usuldan foydalanib, o'qitishni jadal sur'atda olib borish mumkin. Agar ta'lim oluvchilar ko'p bo'lsa, agar Siz faol usullardan o'zini oqlamagan darajada ko'p foydalansangiz, ularning har biriga yetarli e'tibor berish uchun vaqtingiz yetishi amri mahol. Katta guruhlar uchun o'quv materialini og'zaki bayon qilish usullari (ma'ruza, hikoya, tushuntirish) ko'proq mos keladi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv imkoniyatlari. O'qitish metodlarini tanlashda ta'lim oluvchilarning

o'quv imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim: yoshi, tayyorgarlik darajasi hamda jamoada o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligini.

Ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati va uni e'tiborga olish muhimdir. Quyida hammaga ma'lum darajalardan kelib chiqqan holda, ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini boshqarishini o'ziga xosligini ko'rib chiqamiz.

O'z-o'zini boshqarishning birinchi darajasi. Ta'lim oluvchi vazifani to'liq qabul qiladi, ish oxirigacha uni to'liq saqlaydi. Diqqat bilan, chalg'i-masdan ishlaydi. Asosan aniq ishlaydi, xatoga yo'l qo'ysa, tekshirayotganida buni sezadi va to'g'rilaydi. Ta'lim oluvchi: ishni topshirishiga shoshilmaydi, ishni to'g'ri, chiroyli, tartibli bajarilganini yana bir bor tekshiradi.

O'zini-o'zi boshqarishning ikkinchi darajasi. Ta'lim oluvchi vazifani to'liq qabul qiladi, uni ish oxirigacha saqlaydi. Ish jarayonida ba'zi bir xatolarga yo'l qo'yishi mumkin, lekin ularni sezmaydi va tuzatmaydi. Ishni tekshirish vaqtida ham xatolarni sezmaydi. Yaxshi baho olishga intilishi bo'lgani bilan, ishni bezatilish sifati uni qiziqitirmaydi.

O'zini-o'zi boshqarishning uchinchi darajasi. Ta'lim oluvchi vazifaning faqat bir qismini qabul qiladi, lekin mashg'ulot oxirigacha uni qabul qilgan hajmini ham saqlab qolmasligi mumkin. Vazifani bajarayotganda faqat e'tiborsizlik tufayli emas, balki vazifani bajarish qoidalarini eslab qolma-ganligi uchun ham xatolarga yo'l qo'yadi. Xatolarni odatda sezmaydi, ish jarayonida tuzatmaydi, vazifani tekshirayotganida ham sezmaydi. Ishni yaxshilashga hoxish bildirmaydi. Olingan natijalarga sovuqqonlik bilan qaraydi.

O'zini-o'zi boshqarishning to'rtinchi darajasi. Ta'lim oluvchi vazifaning kichik qisminigina qabul qiladi, lekin shu zahotiyoq uni batamom yo'qo-tadi. Xatolarni sezmaydi, ularni tuzatmaydi, vazifaning to'g'ri bajarilganligini tekshirishga vaqt ketkazmaydi. Bajarilgan ish sifatiga befarq.

O'zini-o'zi boshqarishning beshinchi darajasi. Ta'lim oluvchi vazifani umuman qabul qilmaydi. Uning oldiga qandaydir vazifa qo'yilganini tushun-maydi ham. Vazifadan, qalam bilan qog'ozdan foydalanish kerakliginigina il-g'ab oladi. Hoshiya, satrlarni hisobga olish varag'ini yozib bitiradi.

Ta'limning davomiyligi. Dasturning yoki o'quv kursi mavzularining davomiyligi tabiiyki, metod tanlashga ta'sir etadi. Ularning ba'zilar ta'lim oluvchilarni tayyorlashga qancha ko'p vaqt talab qilsa, bu faoliyatni bajarilishiga ham shuncha vaqt talab qiladi. Ta'lim muddati shunchalik chegaralangan bo'lishi mumkinki, ko'p vaqt talab qiladigan metodni Siz uylaganchalik tez-tez ishlatish imkonini bermay-di, bu holda bu usullarni faqat maqsadga muvofiqroq joylarda qo'llashingiz mumkin.

Vaqt-u yoki bu metodni amalga oshirishga ketgan mehnatingiz nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi. Ba'zi usullar Sizdan boshqalarga nisbatan ko'proq tayyorgarlikni talab qiladi. SHuning uchun bunday usullarni qo'llashni rejalashtirayotib, Siz faoliyatni tashkil qilishning ushbu metodini amalga oshirishni tayyorlashga vaqt va kuch yetarlimi, deb o'zingiz savol berishingiz kerak.

O'quv-moddiy sharoitlari. Ba'zi metodlarni qo'llashda alohida sharoitlar talab qilinmaydi: kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnit doskasi, maxsus jihozlangan xona va h.k. Agar Siz, maxsus o'quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan me-todlardan foydalanmoqchi bo'lsangiz, ularning naqdligini ta'minlashingiz kerak.

O'qituvchining mahorati. O'z-o'zidan ravshanki, Siz o'quv dasturini bajarish jarayonida ma'qul bo'l-gan metodlarni qo'llashni bilishingiz kerak. O'qituvchining metodlarni to'g'ri tanlay olishi uning metodik malakasining darajasini ko'rsatib beradi.

O'qituvchi to'g'ri savol berish malakasiga ega bo'lishi va savol-javob texni-kasini egallagan bo'lishi lozim. Bundan tashqari o'qituvchi noan'anaviy metod-larni qo'llaganda fikr-mulohazalarni umumlashtirishni va xulosalar chiqarishni bilishi hamda guruhni boshqarish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak.


Modellashtirish modelining metodlarini qo'llaganda o'qituvchi o'yin re-jasi tuza olishi, vaziyat mazmunini va ishtirokchilarning vazifalarini ishlab chiqishni bilishi lozim.

Ta'limning tashkiliy shakli – belgilangan tartibda va aynan sodir bo'ladigan o'qituvchi va ta'lim oluvchining maxsus tashkil qilingan faoliyati-ning tashqi ifodasidir.

SHunday qilib, ta'limning tashkiliy shakli didaktik kategoriya sifatida o'quv jarayonining quyidagi tashqi tomonlarini, ya'ni:

- uning mavjudlik tarzini – tartib va rejimini;
- o'qituvchi va ta'lim oluvchining hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ifo-dasini aks ettiradi.

Ta'lim jarayonidagi o'zaro hamkorlik faoliyatimizning tashqi ifodasi sifatida uning tashkiliy shakli muhim hisoblanadi. Ta'limning tashkiliy shaklini quyidagicha ifodalash mumkin:




2.4-Rasm. Ta'limni tashkiliy shakllari

Bizning ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyatimiz, guruh dars tizimi doirasida, ta'limni tashkillashtirish shakllari quyidagilarida o'z ifodasini topadi:

- jamoa ish – barcha o'qituvchilar bilan bir vaqtda ishlash;
- guruhlarda ishlash:
 - juftliklarda ishlash;
 - guruhda ishlash;
 - guruhlararo ish;
- yakka tartibda ishlash.

Ushbu tashkiliy shakllarning har biri, jamoaviy va yakka tartibda ta'limni birgalikda olib borishning turiligi, ta'lim oluvchilarning mustaqillik darajasining turiligi va boshqalar bilan tavsiflanadi.



2.5-Rasm. Ta'lim vositalari.

Ta'lim oluvchilarni guruhlariga qay tarzda ajratish kerak?

Ta'lim oluvchilarni guruhlariga shakllantirishda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:

▪ **tasodifiy belgilar bo'yicha:**

- buning uchun ta'lim oluvchiga birdan beshgacha ketma-ket sanashni iltimos qilamiz, keyin esa birinchilarni, ikkinchilarni, uchinchilarni va hokozolarni kichik guruhlariga birlashtiramiz.

▪ **ixtiyoriy belgilar bo'yicha:**

- ta'lim oluvchilarni xonalarda joylashganiga qarab guruhlariga birlashtirish mumkin.

▪ **majburiy kichik guruhlariga ajratish:**

- o'qituvchi ta'lim oluvchilarni majburiy ravishda o'zi kichik guruhlariga ajratadi.

Guruhning son tarkibini aniqlash paytida vazifani xarakterini hisobga olish kerak. Vazifalarni murakkablik darajasiga qarab kichik guruhlar soni quyidagicha shakllantiriladi:

- kichik vazifalarni bajarish uchun guruhning optimal tarkibi 3 – 5 kishi (mashqlar, o'quv turniri, kitob bilan ishlash va boshqalar)

- **5 dan to 7 kishigacha – murakkab vazifalar uchun.**

- ko'p mehnat talab qiladigan (chet tillar bo'yicha mashg'ulotlarda) murakkab vazifalari uchun ko'p sonli guruh tuzish zarur;

- bir-birini tushinishni talab qiladigan (chet tillar bo'yicha darslarda) mashqlar uchun juftliklarda ishlash yaxshi.

2.5.3. O'qitishda interfaol metodlar.

Interfaol metodlarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va imkoniyatlari. Interfaol metod-ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shax-siy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar- o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashab-bus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshi-rishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish soha-sidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan

o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilar-ning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nik-malari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emoqional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni **Blum taksonomiyasi** deb nom-lanadi. (Taksonomiya — borliqning murakkab tuzilgan soha-larini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi. Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushu-nish, qo'llash, taxlil, umumlashtirish, 'baholash darajalarida bo'ladi. SHu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustah-kamlay olish, axborotni yetkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. K4avjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarini tax-miniy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollash-tirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilim-laridan faqat an'anaviy emas, noa'nanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajra-ta oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumot-larning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qi-lish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Interfaol usullar ko'p turli bo'lib ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

SHu mashg'ulotlarni tashkil qilishda interfaol dars-ning asosiy xususiyatlarini uning an'anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko'rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin. SHu maqsadda quyidagi jadvalni keltiramiz.

An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar

2.2-jadval

No	Asosiy tushunchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
1	Qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi.	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi
2	Dars maqsadi	Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatish.
3	O'qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustaxkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish.
4	Darsga tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	O'quvchilar tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.
6	O'quvchilarning vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish

8	Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi,	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi,
9	Baholash	o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.	o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
10	Darsning modul va algoritmlari	Darsning modul va algoritmlardan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.
11	O'quvchilar dan talab qilinadi-gan faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol. Muloqot shakllari: o'qituvchi-guruh; o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi;	O'qituvchi ham, o'quvchilar ham har tomonlama faol. hamkorlik, hamijodkorlik shakllari: o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh; o'quvchi-o'qituvchi; kichik guruh-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi.
12	Bilimlarni o'zlashti-rishning asosiy usullari	Muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa va boshqalar.	Muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil va boshqalar.
13	Mashg'ulot shakllari	Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti, davra suhbat, bahs, munozara,	Ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbat, amaliy ishlar va boshqalar.
	Kutiladi-gan natija	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishlari.	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish.

Bu jadvalda hajm oshib ketmasligi uchun fikr juda qisqa bayon qilindi.

Jadvalda keltirilgan farqlar shu ikki mashg'ulot turining bir-biriga nisbatan afzal va kamchilik tomon-larini yaqqol ko'rsatib turibdi.

2.6. Bo'laklarni jamlash mavzusiga dars material.

O'quv moduli birliklari:

1. Detallarni nuqsonlarini aniqlash va saralash.
2. Detallarni butlash.
3. Detal tsilindrini o'lchash joylari.

3. Asosiy qism


3.1. Bo'laklarni jamlash mavzusini ilgor pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish uchun metodik tavsia ishlab chikish

3.1.1 Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llashning nazariy omillari

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim amaliyoti va nazariyasi ilmdan mustahkam o'rin egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug'atlari (tezaurus)dagi o'rni hali noma'lumligicha bo'lmay qolmoqda.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy Yevropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blui, J. Koroll, P.Ya.Galyperin, V.I.Davydov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmykova, L.I. Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talyzina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavtsev, A.M. Matyushkin, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktik olimlarga taalluqlidir.

Pedagogik texnologiya tarkibiy qisimlarini ko'rib chiqamiz.



3.1-Rasm. Pedagogik texnologiya tarkibi.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta'riflari mavjud.

Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog-didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topamiz.

«Pedagogik texnologiya – psixologik va pedagogik o'gitlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev).

«Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi» (V.P. Bespalko).

«Pedagogik texnologiya – rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi» (I.P. Volkov).

«Texnologiya – ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi» (V.M. SHepel's).

«Pedagogik texnologiya – talaba va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlama o'ylangan modelidir.»(V.M.Manaxov).

«Pedagogik texnologiya – bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir» (YuNESKO).

«Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yig'indisi va tartibini bildiradi»(M.V.Klarin).

«Pedagogik texnologiya – o'zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta'riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi». (G.K. Selevko).

Bu ta'riflar tahlilidan pedagogik texnologiya natijani qo'lga kiritish uchun ta'lim doirasida zarur bo'lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tatbiq etish degan xulosaga kelish mumkin.

3.1.2 Metodik ta'minot tushunchasi.

Metodik ta'minot talabalarning auditoriya ishlarining barcha shakllari (ma'ruza, laboratoriya, amaliy, seminar mashg'ulotlari) va auditoriyadan tashkari ish shakllari (mustaqil ta'lim, amaliyotning barcha turlari, nazorat, kurs va bitiruv malakaviy ishlari) hamda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilishning turli shakllarini o'z ichiga qamrab oladi. Fanlarning metodik ta'minotining asosi sifatida o'quv-uslubiy majmua aks etadi O'quv-uslubiy majmua talabalarning mustaqil ishlashini samarali tashkil etish va qo'llab-quvvatlash hamda o'quv fanlarini o'qitishda uzluksizlikni saqlash imkonini beradi.

Didaktik va metodik ta'minotning qiyosiy tahlili

3.1 жадвал

Tushunchalar	Didaktik ta'minot	Metodik ta'minot
Mazmun	O'zaro aloqador xilma-xil o'quv axborotlari majmui	Maxsus ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan o'quv-uslubiy majmua
Maqsad	O'qituvchi va talabalar o'rtasida faol axborot almashishga doir o'zaro harakatni tashkil etish uchun sharoit yaratish	Pedagogik faoliyatni doimiy takomillashtirib borish uchun sharoit yaratish
Funktsiya	Tashkiliy, ta'limiy, nazorat va kommunikativ	Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llash, umumlashtirish va translyatsiya, kundalik metodik yordam
Tuzilishi	O'quv dasturlari, o'quv-metodik nashrlar, didaktik materiallar, o'qitish vositalari	O'quv dasturlari, ma'ruza matnlari, ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim ishlanmalari, nazorat va baholash uchun topshiriqlar, fanni o'qitishga doir tashkiliy ko'rsatmalar

3.1.3. «Bo'laklarni jamlash» mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Kasb-hunar kollejlarida ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'lim texnologiyasini etilganda. Barcha talabalar o'z qobiliyatlari darajasida albatta o'zlashtirishlari kafolatlanadi. Barcha pedogoglar pedagogik texnologiya mexanizmlarini o'rganib olsalar, deyarli bir xil natija olishga erishadilar.

Ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari:

- o'quvchi texnologiyasi jarayonida pedagog rahbarligida talaba mustaqil bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi;
- o'quvchi o'qitilmaydi, uni mustaqil o'qishga o'rgatiladi;
- o'quvchiga bilim tayyor holda berilmaydi, unga bilimlarni turli manbalar (darslik, qo'llanma, matn, xrestomatiya)lardan mustaqil ola bilishga o'rgatiladi.

O'quvchilarni pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishda, bilim olish sifati, ko'nikmasi va malakasi yaxshi shakllanadi.

Pedagogik texnologiyaning o'qitishdagi «interfaol» usullari o'quvchilarda fikrlash, tanqidiy munozaralar qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi va chuqurlashtiradi. Bu usullarda bilim olgan o'quvchilar har tomonlama bilimli, aqlli mutaxasis bo'lib chiqib Respublikamizning rivojiga o'z hissalarini qo'shadilar.

Fanni «interfaol» usuli bilan o'qitishda o'quvchilarda fikrlash, tanqidiy fikrlash, vaqt, rang-baranglik va tavakkalchilik, qadrlash va qimmatlilik o'zaro fikr olishuv, tanqidiy fikrlashni

ta'minlovchi savollar, «kubiklar», «klasterlarga ajratish», «sinkveyn» va «aqliy hujum» kabi tushunchalar hosil bo'ladi.

Bu tushunchalarni yaxshi o'zlashtirib olgan o'quvchilar fan yoki fan mavzusini o'zlashtirishda yaxshi natijalarga erishadi.

Misol tariqasida, «Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashda» fanini o'qitishda «klasterlarga ajratish» va «sinkveyn» usulidan foydalanish tartibini keltiramiz.

Krivoship shatunli mexanizmni butlashga tuzilgan klaster.

Klaster «axborotni yoyish metodi». Klasterga ajratish pedagogik strategiya bo'lib, u ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushuncha (xodisa, voqea) lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi, yuqoridagi mavzu bo'yicha o'quvchilarni erkin va ochiqdan-ochiq fikrlashiga yordam beradi. «Klaster» so'zi g'uncha, bog'lash ma'nosini anglatadi. Klasterga ajratishni da'vat, anglash va muxokama bosqichlaridagi fikrlashni rag'batlantirish uchun qo'llash mumkin.

Asosan, u yangi fikrlarni qo'zg'ash va mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo'lib, u muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.

Yuqoridagi mavzu bo'yicha klasterlar tuzishni, bu mavzuni mukammal o'rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Klasterlar tuzish ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi:

1. O'quv taxtasi o'rtasiga katta qog'oz varog'iga asosiy so'z yoki mavzu yoziladi.
2. Bu mavzu tegishli bo'lgan so'z yoki gaplar orqali yoziladi.
3. Tushuncha va g'oyalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni o'rnatiladi.
4. Eslangan variantlarni hammasini yoziladi.

Klaster tuzishda guruhdagi barcha o'quvchilarning ishtirok etishi, bu guruhda paydo bo'lgan g'oyalarning o'zagini aniqlashga imkoniyat yaratiladi.

Sinkveyn (axborotni yig'ish) uslubi

Ilg'or pedagogik texnologiyaning o'qitishni interaktiv usullaridan biri bu «Sinkveyn» dir.

Sinkveyn axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab g'oyalarni, sezgilarni, tafakkurlarni va tasavvurlarni bir necha so'zlar vositasida bayon qilish muhim ahamiyatga ega.

Sinkveyn bu she'r bo'lib, u biror voqea munosabati bilan yoziladigan axborot va materiallarni sintezlashni talab etadi.

Sinkveyn so'zi frantsuzcha so'z bo'lib, besh degan tarjimani beradi. Demak, besh qatordan tuzilgan she'rdir.

Ko'p yillar davomida o'quv maqsadlarini faqat o'qituvchi faoliyati orqali ifodalanib kelinishi miyaga qattaq o'rnatilib qolgan. Buning natijasida yaxshi natijalarni o'quvchilar vazifalari orqali ifodalashda ma'lum kamchiliklar sodir bo'lar edi. Bunday holda identifikatsiyalanuvchi o'quv maqsadlaritushunchasini anglashda sinkveyn uslubini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Sinkveyn besh qatordan iborat o'ziga hos qofiyasiz so'zlar bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mazmun) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan tuzilgan variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi.

Sinkveyn tuzish - murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir necha so'zlar bilan ifodalash uchun muxim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidasi:

1. Birinchi qatorda mavzu (topshiriq) bir so'z bilan yoziladi (odatda ot turkumiga oid so'z bilan)
2. Ikkinchi qatorda mavzu ikkita sifat belgisiga oid bo'lgan so'zlar (sifat turkumiga ega bo'lgan ikkita so'z bilan) bilan ifodalanadi.
3. Uchinchi qatorda ushbu mavzu bo'yicha hatti-harakatlarni uchta so'z bilan tavsif etiladi.
4. To'rtinchi qatorda mavzuga aloqadorlikni ko'rsatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi.
5. Beshinchi qatorda mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi mavzuga yaqin bo'lgan bitta so'z-sinonim yoziladi.

O'quv maqsadi to'g'risidagi axborotni «yozish» va umumlashtirishni sinkveyn tuzishga misol tariqasida ko'rib chiqamiz:

SHunga o'xshash Krivoship shatunli mexanizmni bo'laklarga ajratish va yuvish tozalash ishlariga tuzilgan «sinkveyn» lar na'munasi ilovada keltirilgan:

Sinkveyn-Porshen

1. Porshen
2. Duralyuminli, qotishma
3. Kuchni shatunga uzatadi
4. Ilgarilanma-qaytma harakat qiladi
5. qism

Sinkveyn-SHatun

1. SHatun
2. qo'shtavrli po'lat
3. Bosim kuchini uzatadi
4. Tirsakli valni krivoshipini aylantiradi
5. Sterjen

Sinkveyn-Tirsakli val

1. Tirsakli val
2. Krivoshipli qism
3. Aylanma harakat qiladi
4. Krivoshipda birovchi moment yaratadi
5. val

Sinkveyn-Halqa

1. Halqa
2. Kompessiyali, sidirgichli
3. Bosimni tirqishdan o'tkazmaydi
4. Bosim kuchini ko'tarioishini ta'minlaydi
5. To'sqich

Sinkveyn-Moxovik

1. Maxovik
2. Tishli g'ildirak
3. O'zidan energiya chiqaradi
4. Dvigatelni ravom ishlashini ta'minlaydi
5. SHesternya

Sinkveyn-Dvigatel

1. Dvigatel
2. Porshenli, karbyuratorli
3. Energiya ishlab chiqaradi
4. Issiqlik energiyani mexanikaga aylantiradi
5. Agregat

Sinkveyn-qurilma

1. qurilma
2. Elektrli, tormozli
3. Ta'mirlangan dvigatelni o'rnatiladi
4. Dvigatelni issiq holatda sinaladi
5. Jihoz

Sinkveyn-Sinash

1. Sinash
2. Sovuqli, issiqli
3. Dvigatelni qurilmada sinaladi
4. Sinashda dvigatelni ko'rsatkichlari o'lchanadi
5. Tajriba

Tuzilgan sinkveynni tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchi vazifasining eng muhim xossalarini anglatuvchi bir juft sifatni ikkinchi qatorga yozishni o'ylab turish zarurligini ko'rsatadi. Buni javobini bir necha xil variantlarini o'ylab topib, so'ngra ulardan eng muvofiq'ini ajratib olish bilangina uddalash mumkin.

Xuddi shuningdek, boshqa qatorlarga yoziladigan so'zlar ham jadallik bilan fikrlash natijasida izlab topiladi bu esa «topshiriq» tushunchasining ma'nosini puxtaroq anglashga olib keladi.

3.2. Darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish. “Bo’laklarni jamlash” mavzusiga.

Darsning texnologik xaritasi – dars ishlanmasining asosiy o’zagini tashkil etadi. Dars ishlanmasi o’qituvchi uchun tuzish majburiy bo’lgan hujjatdir. Uni tuzishdan ko’zlangan asosiy maqsad o’qituvchining dars jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmuni boyitish, ta’lim samaradorligini oshi-rishdan iborat. Dars ishlanmasini yildan-yilga takomillashtirib va mukammallashtirib borish, yangi metodlarni qo’llash, yangi materiallarni kiritish bilan yangilab turilishi lozim. Yangi davlat ta’lim standartlari va o’quv dasturlarining joriy etilishi va ta’lim jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarni, yangi axborot texnologiyalari va texnik vositalarining qo’llanishi bilan dars ishlanmalariga qo’yilgan talablar ham o’zgarib bormoqda. Dars ishlanmalari uchun tayyor qolip yo’q, chunki jonli dars jarayonini hech qanday qolipga solib bo’lmaydi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo’lishi mumkin.

Dars ishlanmasining namunaviy ko’rinishi: **Syujetli-rolli o’yinlar**

Dars mavzusi: Bo’laklarni jamlash.

Darsning ta’limiy maqsadi: Ta’lim oluvchilarni avtomobil uzal, mexanizm, birikmalarini ta’mlrlash jarayoniga tayyorlash.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Ta’lim oluvchilarni bo’laklarni nuqsonlarini aniqlash va butlash ishlarini tushuntirish orqali ko’nikmalarni shakllantirish va ekologik tarbiyalash, kasbga yullash.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Ta’lim oluvchilarning avtomobil va dvigatellarning tuzilishi va qisimlarga ajratish haqidagi bilimlari, darslik ustida mustaqil ishlash va amaliy bajara olish ko’nikmalarini rivojlantirish.

Darsni jihozlash: Krivoship shatunli mexanizm detallarini butlash, saralash, yuvish va tozalash jixozlari, plakatlar va slaydlar.

Darsda foydalanadigan texnologiya: Kichik guruxlarda ishlash, baxs munozara, davra suxbati.

Asosiy tushunchalar va tayanch bilimlar: Birikmalar, yuvish vositalari, mexanizm, uzal, mikro tozalash, kirlar va x.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism

II. Ta’lim oluvchilarni dars mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

III. Yangi mavzuni o’rganish:

O’qituvchi yangi mavzuni o’rgatishdan oldin ta’lim oluvchilarni teng sonli 4 ta guruhga ajratadi va guruxlarga nom beradi.

Jumladan, 1-guruh «Bunyotkor» maqomini olib matndagi moslashish, kirlar, zanglash, yuvish va tozalash haqidagi ma’lumotlarni o’rganib ma’ruza tayyorlaydilar va qo’yidagi jadvalni to’ldiradilar:

Detallarning xususiyatlari	Ekspluatatsion xususiyatlari
Moslanish	
kirlar	
Zanglash	
yuvish va tozalash	

2-guruh «_____» maqomiga ega bo’lib, detallarni nuqsonlari, detallarni butlash, yaroqsiz detallar, yeyilishdarajasi materiallarni o’rganib chiqib ma’ruza tayyorlaydilar va qo’yidagi jadvalni to’ldiradilar:

Detallarni kamchiliklari	Mazkur xolatning o’ziga hos xususiyatlari
detallarni nuqsonlari	
detallarni butlash	
yaroqsiz detallar	
yeyilishdarajasi	

3-guruh «_____» maqomini olib dvigatel tsilindrlarini o’lchash joylari mavzusi bo’yicha ma’ruza tayyorlaydilar va qo’yidagi jadvalni to’ldiradilar:

O’lchash	Mazkur holatni o’ziga xos xususiyatlari va ahamiyati
----------	--

TSilindr diametrini	
Porshen	
SHatun	
Tirsakli val	

4-guruh «_____» maqomini olib matndagi moslanishlarning kelib chiqishi, detallarni jamlash bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydilar.

«_____» o'zlariga belgilangan mavzuning tegishli qismini o'rganib bo'lganlaridan so'ng, ko'rgazmali qurollar asosida ma'ruzalarni bayon qiladilar. Guruhlar o'rtasida savol-javob, o'quv bahsi o'tkaziladi.

VI. Yangi mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilarning bilimni baholash va nazorat qilish darslikda berilgan savollar va test topshiriqlari orqali amalga oshiriladi

V. Darsni yakunlash.

VI. Uyga vazifa berish.

4. 1. Pedagogik tajriba va uning natijalari

CHust sanoat, transport va aloka kasb-hunar kollejida “Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko’rsatish va ta’mirlash” fanini o’qitish jarayonida o’quvchilarni kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish bo’yicha tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tajriba-sinov ishlari olib borishda kasb-hunar kollejarining Avtotransport bo’limida malakali ishchi kadrlar tayyorlash bo’yicha dasturlar, avtomobil tuzilishi fani bo’yicha namunaviy va ishchi dasturlar, ma’ruza, laboratoriya va ishlab chiqarish ta’limiga oid materiallardan foydalandik.

Tajriba-sinov ishlari Avtotransport bo’limi yo’nalishining 3-bosqichi o’quvchilari bilan olib borildi.

Bajarilgan ishlarning qisqacha mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Takidlovchi bosqichda-ilmiy tadqiqot ishimiz materiallari asosida tajriba-sinov ishlarida qatnashuvchi shaxslar va zquv muassasining tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Malakali ishchilar tayyorlash bo’yicha o’quv rejalar va dasturlar tashkil etildi.
2. Tadqiqotni o’zgartiruvchi-shakllantiruvchi bosqichida o’quvchilarning ijtimoiy-siyosiy jihatdan bugungi kun talabi darajasida shakllantirish bo’yicha o’tkaziladigan tajriba-sinov ishlari uchun zarur bo’lgan materiallar, ko’rsatmalar va chor-tadbirlar ishlab chiqildi. Olingan natijalar umumlashtirildi suhbat va kuzatishlar orqali o’quvchilarda kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarni shakllanganlik darajasi aniqlandi.
3. Hal qiluvchi bosqichda agregat va mexanizmlarni qismlarga ajratish va yig’ish amaliy mashg’ulotini o’tish jarayonida o’quvchilarning texnik hamda kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan usullar, vositalar va metodlar tajribada sinab ko’rildi, ularning samaradorligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari olib borishda nazorat va tajriba guruhlariga berilgan materiallar bir o’qituvchi rahbarligida bir xil metodika yordamida sinab ko’rildi va ikkala guruh o’quvchilarida shakllangan texnik hamda kasbiy bilim, ko’nikma va malakalar farqlari taqqoslandi.. tajriba-sinov natijalarini olishda biz nazorat va tajriba guruhlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida laboratoriya amaliy mashg’ulotlar, ma’ruzalar faol o’qitish usullaridan foydalandik.

O’t oldirish tizimini tuzilishi va ishlash printsiplari mavzusini o’qitishda o’yinli texnologiyalardan foydalanib ma’ruza mashg’ulotida o’quvchilarning bilimlarini shakllantirish bo’yicha o’tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalarini taqqoslash uchun nazorat ishlari va laboratoriya amaliy mashg’ulotlar baholarini asos qilib olindi.

4.1-jadval

O’tkazilgan tajriba-sinov natijalari

Tartib raqami	Guruh	O’quvchilar	Baholar				O’rtacha baho
			5	4	3	2	
1	Nazorat guruhi	54	12	17	22	3	3,70
1	Tajriba guruhi	54	20	25	9	-	4,20
Jami		108	32	42	31	3	3,95

Jadvaldagi natijalar tahlili quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi::

A) Nazorat guruhida ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar an’anaviy usulda olib borilgan bo’lib, mavzular o’qituvchi tomonidan berilgan. SHu sababli o’quvchilarning o’zlashtirishi yuqori bo’lmaydi.

B) Tajriba guruhida ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar pedagogik texnologiyalar, interfaol strategiyalarni qo’llash asosida o’tildi va yuqori natijalarga erishildi.

Olingan natijalar ushbu fanni o’qitishda interfaol strategiyalardan foydalanish yuqori samara berishi mumkinligini ko’rsatdi.

5. Mehnat va atrof muhit muhofazasi qismi

5.1. Bo'laklarni jamlash va yuvish, tozalash vositalari hamda uskunalarini ishlatishda texnika xavfsizligi

Inson ishlab chiqarish faoliyatining istalgan sohasida xavfsiz mehnat sharoiti yaratish asosiy xal qiluvchi omil bo'lishi lozim. Ayniqsa ish sharoiti odamning sog'ligi uchun ancha xavfli bo'lgan joylarda bu juda muhim.

Xar bir mamlakatda, shu jumladan, O'zbekistonda ham mehnat xavfsizligi standartlarning davlat tizimi mavjud, unda mehnat xavfsizligining umumiy talablari belgilangan. Bu talablarga avtotransport korxonalarida, TXK stantsiyalarida, yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar, shatakchilar, tirkamalar va yarimtirkamalarga barcha turdagi texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash ishlari bajariladigan TXK stantsiyalari va ixtisoslashtirilgan markazlarda rioya qilinishi shart.

Tegishli davlat nazorati xizmatlari xavfsiz mehnat sharoiti yaratilishini nazorat qiladi. Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish korxonalarida xavfsiz mehnat sharoiti yaratishga doir barcha ishlar hajmining bajarilishini nazorat qilish korxona direktori va bosh muxandisi zimmasiga yuklanadi. Korxonalarga ishga kiradigan barcha shaxslarga xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasidan yo'l yo'riq beriladi. Kirish yo'l yo'rig'i ushbu korxonada xavfsizlik texnikasini o'rgatishning birinchi bosqichi hisoblanadi. O'rgatishning ikkinchi bosqichida ish o'rnidagi yo'l yo'riq beriladi. Bu yo'l yo'riq ishchining ixtisosligi bo'yicha va bevosita ish o'rnida xavfsiz mehnat usullarini o'rgatish maqsadida beriladi.

Avtomobilni ta'mirlovchi chilangar baxtsiz xodisa ro'y berganda, tok urganda shifokor kelgungacha yoki shkastlangan kishini tibbiy muassasaga olib borgunga qadar, birinchi yordam ko'rsatilishi zarur.

O'z xizmat vazifasini o'tab turgan paytda shikast olish, jaroxatlanish, tok urishi, zaxarlanish va kasb kasallaklari ishlab chiqarishda shikastlanish jumlasiga kiradi.

Ishlab chiqarishda shikastlanish ishni tashkil qilishdagi kamchiliklar, xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik va ularning bajarilishi ustidan nazorat yetarli emasligi oqibatida kelib chiqadi.

Davlat standartida TXK va JT jarayonlari quyidagi xar bir bosqichda xavfsiz bo'lishi talab qilinadi:

- Avtomobillarni TXK va JTga tayyorlash;
- Ishlarni bevosita bajarish;
- Avtomobillar tizimlarini sinash va tekshirish;
- Avtomobillarni yonilg'i moylash materiallari va maxsus suyuqliklar bilan ta'minlash;
- Avtomobillar, detallar, agregatlar va materiallar bilan ta'minlash;
- Ishlab chiqarish chiqindilarini olib ketish va zararsizlantirish.

5.2. Bo'laklarni jamlash va yuvish, tozalash vositalari hamda uskunalari ishlatishda atrof muhit muhofazasi

Avtotransport korxonalarida avtomobillar atrof muhitni ifloslantiradi. Qismlarga ajratilgan detallarni tekshirishdan oldin turli xil o'tirindilardan, yani moy shimgan kirlardan, yani moy pardasidan, quyqalardan va qurumlardan tozalanadi. Metaldan bo'lgan detallar uchun juda ko'plab yuvuvchi eritmalari mavjud. Bulardan chiqqan chiqindilarni kerakli joylarga to'kish va qayta ishlab foydalanish lozim. Ichki yonuv dvigatellari yonilg'ini iste'mol qilib atrof muhitga zaharli gazlar chiqaradi. Erga to'kilgan yonilg'i, moyi, tormoz va sovitish suyuqliklari tuproq va suv havzalarini bulg'aydi. Bitta engil avtomobil bir yilda 10 000 km masofa bosib o'tish uchun taxminan 380 kg uglerod oksidini, 110 kg uglevodorodni, 20 kg azot oksidi va chang qurumlarini tashqi muhita chiqarib tashlaydi. Zaharli moddalar atmosferani zaharlabgina qolmay, binolar, plastmassa va rezina mahsulotlarini parchalanishini tezlashtiradi. Ayniqsa qo'rg'oshin azot oksidi, oltingugurt birikmalari o'simliklarni qurishiga olib keladi. Shu narsa aniqlanganki, havo tarkibidagi $0,08 \div 0,10$ mg/m³ miqdorda oltingugurt ikki oksidini uzoq muddatda daraxtlarga ta'sir etganida, ularning qurib qolishiga olib kelgan.

Avtomobillar detallarini yuvish va tozalashda atrof muhitga ta'sirini kamaytirish uchun atrof muhit muhofazasi bo'yicha talablarni bilish va ularga rioya qilish nafaqat avtokorxonalarga balki barcha avtohavaskorlarga ham muhimdir.

Xulosa

Menga bitiruv malaka ishi sifatida **Bo'laklarni jamlash mavzusini ilgor pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish uchun metodik tavsiya ishlab chikish** mavzusi berilgan. Bitiruv malaka ishi oldi amaliyotini CHust sanoat, transport va aloka kasb-hunar kollejida o'tkazdim. Kasb-hunar kolleji o'quv jarayonini tahlil qilib chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishini mavzusining mohiyatidan kelib chiqib fan va mavzuni mutaxassis tayyorlashdagi o'rni, ahamiyati va uning tavsifi, fanni o'zlashtirgan o'quvchi qanday bilim, malakaga va ko'nikmaga ega bo'lishi, fan bo'yicha olib boriladigan dars turlari va ularni hajmi, tanlab olingan mavzuning ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan. Bu mavzuni o'tishda **bo'laklarni jamlash** mavzusini o'qitish metodikasini ishlab chiqishda asosiy e'tiborni pedagogik texnologiyalar, innovatsion texnologiya, interfaol usullarni dars jarayoniniga tadbiq etish, metodik tavsiya ishlab chiqish didaktik materiallar, tavsiya etiladigan adabiyotlar, dars jarayonini rejalashtirish va boshqa fanlarda o'tiladigan mavzular bilan bog'lanishlariga qaratilib, mavzuda belgilangan ta'limiy, tarbiyaviy va rejalashtirish maqsadlariga erishish imkoniyatlari yoritib beriladi.

Bitiruv malaka ishini umumiy qismida kasb hunar kolleji, va malka tavsifi, bitiruv malaka ishi mavzusini asoslash berilgan.

Asosiy qismida fanni tavsifi, fanlararo bog'lanishlar mavzuning uslubiy va texnik ta'minoti an'anaviy dars o'tishni qisqacha bayoni, fanni o'qitishda interfaol usullarni qo'llash, interfaol usullarni joriy etishda bilim olishning intellektual resurslarini qo'llash, dars materiali berilgan.

O'qitish metodikasi qismida **bo'laklarni jamlash** mavzusini o'qitishda interfaol usullar qo'llanilgan.

Bitiruv malaka ishini iqtisodiy qismida taklif etilgan uslubni afzalligi va uni o'quvchilarni bilimini oshirishdagi samaradorligi aniqlangan.

Mehnat muhofazasi qismida tajriba va amaliy mashg'ulot xonasi uchun xavfsizlik texnikasi berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov «Jahon moliyaviy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» T.: Ma'naviyat, 2009 yil, 173 bet
2. I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» T.: Ma'naviyat, 2008 yil. 173 bet.
3. I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», - T.: Sharq, 1999
4. I.A.Karimov «O'zbekiston buyuk kelajak sari», - T.: Sharq, 1998
5. O'zbekiston respublikasida avtomobil sanoatini rivojlantirish va ularni ekspluatatsiyasini tashkil etish yuzasidan hukumat qarorlari, yetuk olim va mutaxassislarning fikrlari, chiqishlari va ilmiy maqolalari (1991 yildan shu kungacha)
6. I.A.Karimov Oliy ta'lim muassalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. O'zbekiston ovozi, 2011 yil 21 may, № 100.
7. Gulomov S.O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: Nazariya va amaliyot. T.: O'zbekiston, 2006
8. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. Namangan, NamMPI, 2004
9. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. T.: Aloqachi, 2006
10. Azizxo'jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: O'zbekiston, 2003
11. Hamidov A. Oliy texnika o'quv yurtlarida muammoli o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. T.: ToshDU, 2003
12. Olimov Q.T. va boshqalar. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. T.: FAN, 2004
13. Barovskiy Yu.I. va boshqalar Avtomobillarni tuzilishi, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash. T.: Mehnat, 2001
14. Fayzullaev E. Transport vositalarini tuzilishi va nazariyasi T.: Yangi asr avlodi, 2006
15. Fayzullaev E.Z. va boshqalar Transport vositalarini tuzilishi va nazariyasi. T.: Zarqalam, 2005
16. Vaxlamov V.K. Podvijnoy sostav avtomobil nogo transporta. M.: Akademiya, 2003
17. Vaxlamov V.K., Shatrov M.G., Yurchevskiy A.A. Avtomobili: Teoriya i konstruktsiya avtomobilya i dvigatelya. M.: akademiya, 2003
18. Ivanov A.M., Solntsev A.N., Gaevskiy V.V. Osnovo`konstruktsii avtomobilya. M.: Knijnoe izdatelstvo za rulyom, 2005
19. Fayziev M.M. va boshqalar. Ichki yonuv dvigatellari. T.: Turon-Iqbol, 2007
20. Avtomobillarni texnik ekspluatatsiyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darsli. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 4-nashri. ye.S.Kuznetsov, A.P.Boldin, V.M.Vlasov va boshqalar. Prof.Q.M.Siddiqnazarov tahriri ostida tarjima qilingan. T.: VORIS, 2006
21. Hamroqulov O., Magdiev Sh. Avtomobillarni texnik ekspluatatsiyasi. T.: Toshkent, 2005
22. Musajonov M.Z. Avtotransport korxonalarini texnologik loyihalash. T.: FAN, 2006
23. Mahmudov G'.N., Hamroqulov O.H. Avtomobillarni elektr va elektron jihozlari 1 va 2-qismlar. Jizzax, JizPI, 2007
24. Musajonov M.Z. Avtotransport tarmog'i korxonalarini texnologik loyihalash. T.: VORIS, 2006
25. Qulmuhammedov J.R. va boshqalar. Avtomobil va dvigatellarni ta'mirlash. T.: FAN, 2003
26. Dadamirzaev G'. Abdurahmonov S. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavrlarining bitiruv malakaviy ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma, Namangan, 2009